

O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARIDA AYOL ROLINING IFODALANISHI

Ro'ziyeva Rayhon Abduxalilovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasi o'qituvchisi

REPRESENTATION OF WOMEN'S ROLES IN UZBEK AND ENGLISH PROVERBS

Ruzieva Raykhon Abdukhaliilovna

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

*Teacher of the Department of Advanced Courses of Foreign
Languages and Literature*

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ РОЛИ ЖЕНЩИНЫ В УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Розиева Райхон Абдухалииловна

*Преподаватель кафедры старших курсов иностранных
языков и литературы Деновского института
предпринимательства и педагогики*



**Orcid: 0009-0006-5942-
5355**

rayhonroziyeva235@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz maqollari semantic va lingvokulturologik jihatdan qiyoslanib, ularda gender semasining ifodalanishi, ayniqsa, jamiyatda ayol jinsiga munosabat tahlil ostiga olinadi. Ikki tildagi ayol jinsini ifodalagan maqollarga misollar keltirilib, o'xshash va farqli jihatlari izohlanadi. Turli til oilalari va va turli sotsial jamiyatga mansub bo'lgan xalqlarda ayollarning ijtimoiy mavqei, oilaviy ahvoli, aql-zakovati, fe'l-atvori, axloqiy me'yorlaridan kelib chiqqan holda maqollar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: maqol, gender, erkak, ayol, jins, leksema, madaniyat, jamiyat, sema, konseptosfera.

Abstract: This article compares Uzbek and English proverbs from a semantic and linguocultural perspective, analyzing the expression of gender semantics in them, especially the attitude towards women in society. Examples of proverbs expressing the female gender in the two languages are given, and their similarities and differences are explained. Proverbs are analyzed based on the social status, marital status, intelligence, character, and moral standards of women in peoples belonging to different language families and different social societies.

Key words: proverb, gender, man, woman, sex, lexeme, culture, society, sema, conceptosphere.

Аннотация: В данной статье узбекские и английские пословицы сравниваются с семантической и лингвокультурологической точки зрения, анализируется выражение в них гендерной концепции, особенности отношения к женскому полу в обществе. Приводятся примеры пословиц, выражающих женский род на двух языках, объясняются их сходства и различия. Пословицы анализируются с учетом социального статуса, семейного положения, интеллекта, характера и моральных качеств женщин народов, принадлежащих к разным языковым семьям и разным социальным обществам.

Ключевые слова: пословица, род, мужской, женский, род, лексема, культура, общество, sema, концептосфера.

KIRISH (INTRODUCTION). Bugungi tilshunoslik rivoji fanlar integratsiyasiga qadar yetib bormoqda va jarayon natijasida tilshunoslikda zamonaviy antropotsentrik paradigma doirasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, gender tarkibiy qismini konseptosferalarni ta’riflashga birlashtirish, aqliy ongning shakllanish quroli sifatida til kognitiv ko‘lamini aniqlash, gender konseptosferani qiyosiy o‘rganishning ilmiy-metodologik asosini ishlab chiqish, paremiologik fondida gender stereotiplar muammosi, gender konseptosferasining segment xususiyatlari, gender konseptosferasi an’analari hamda innovatsiyalari muammolariga alohida e’tibor berilmoqda. Tilning madaniy boyligi sanalgan va gender xususiyatlarni o‘zida aks ettiruvchi maqollar xalq og‘zaki ijodining ajralmas qismi bo‘lib, jamiyatning axloqiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini ifodalashda ushbu birliklarning roli juda katta. Kognitiv axborotlarni tashuvchi maqollar har bir xalq dunyoqarashi mahsuli bo‘lib, unda shu xalqning kundalik hayotiy xulosalari, insonlarning urf-odatlarini, e’tiqodlari va ijtimoiy-axloqiy me’yorlari aks etadi.

Bilamizki, o‘zbek va ingliz tillari turli oilalarga mansub bo‘lib, bu ikki tildagi maqollarni qiyosan o‘rganish orqali, ikki madaniyatdagi gender rollariga jamiyatning munosabatini aniqlash, gender rollarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin. Ushbu kichik tadqiqotimizda o‘zbek va ingliz maqollarida ayolning o‘ziga xos rollari, ularning jamiyatdagi o‘rni va jamiyatning ayolga bo‘lgan munosabati tahlil qilinadi, o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, munosabat bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (MATERIALS AND METHODS). Gender konseptosferasini o‘rganishga bo‘lgan katta qiziqish kognitiv tilshunoslikning jadal rivojlanishi natijasi hisoblanadi. Genderkognitiv paradigmani o‘rganish bilan tilshunoslar A.V.Kirilina, G.G.Slishkin, I.V.Palayeva, M.V.Demina, N.V.Palanchuk, D.V.Mines shug‘ullangan. A.V.Kirilining doktorlik dissertatsiyasida rus paremiologik fondida gender stereotiplar muammosi ko‘rib chiqiladi. Identifikatsiya belgilariga tayangan holda zamonaviy anekdotda gender konseptosferasini tahlil qilish metodikasi G.G.Slishkin tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, A.A.Morozova dissertatsiyasi ham e’tiborga molik, chunki unda

ispan tilidagi gender stereotiplar kognitiv mazmun orqali ko‘rib chiqilgan. Gender tadqiqotlar oxirgi o‘n yillikda o‘zbekistonlik tilshunoslarning ustuvor vazifalari doirasiga kirdi. D.U.Ashurova tomonida stilistik til qatlamida gender omillarni aks etish usullari o‘rganilgan bo‘lsa, N.N.Nabijonova ayollik gender markerlarini yoritgan, M.I.Rasulova atov jarayonlari gender vektorini aniqlagan. Shu bilan birga paremiyalarning gender jihatini aks ettirish muammosi qisman ko‘rib chiqildi, aytish mumkinki, bu borada o‘zbek tilshunoslari ilk qadamlarini qo‘ymoqdalar. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida konsept tahlilning gender va kognitiv jihatlarini birlashtirgan N.Z.Nasrullayevaning ilmiy izlanishlari katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda [1].

O‘zbek xalqida ayolga qo‘yilgan talablar, ijtimoiy me’yorlar, axloqiy qadriyatlar ko‘pincha maqollar orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalq maqollarida ayol obrazini ifodalashga xizmat qiluvchi ko‘plab leksik birliklar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek madaniyatida ayollarning tutgan o‘rni, ularning jamiyat va oiladagi mavqei hamda ayollarga nisbatan mavjud bo‘lgan milliy qarashlarni aks ettiradi. O‘zbek maqollarida *ayol, xotin, ona, qiz (qiz bola), kampir, opa, singil, kelin, qaynona* kabi so‘zlar yordamida ayollarga nisbatan jamiyatda mavjud bo‘lgan qarashlar va ularning ijtimoiy mavqei, ayollar haqidagi an’anaviy tasavvurlar, gender stereotiplari va obraziy rollarining taqsimlanishi qanday aks ettirilganligi ochib beriladi. Maqolada lingvistik tahlil, lingvokulturologik tahlil, komponent tahlil, kuzatuv metodlaridan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (DISCUSSION AND RESULTS). Maqollar – bu qisqa, o‘g‘itli va ko‘pincha donolikni ifodalovchi barqaror birliklar bo‘lib, ular ko‘pincha hayotning asosiy qonuniyatlari, axloqiy qadriyatlar va turmush tarzini tasvirlaydi. Gender esa, biologik farqlardan tashqari, ijtimoiy va madaniy jihatdan shakllangan erkak va ayolga xos rollarni, imkoniyatlarni hamda ularning jamiyatdagi o‘rnini bildiradi. Gender ma’naviyati turli madaniyatlarda turlicha shakllanishi mumkin va bu aksariyat hollarda qarshi jins vakillarining ayollarda munosabatidan kelib chiqadi. Xalq ijodi namunasi bo‘lgan, hayotiy xulosalarga asoslangan maqollar orqali jamiyatdagi gender stereotiplari, qadriyatlar va urf-odatlar haqida

ma'lumot olish mumkin. O'zbek va ingliz maqollarida gender belgilarining ifodalanishi, asosan, erkak va ayolga xos o'ziga xos ijtimoiy rollarning ifodasidir. Bu maqollar o'zining o'g'itli, xalqona va axloqiy xarakteriga ko'ra, har ikki xalqning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashlarini aks ettiradi [2].

Anonim xarakterga ega bo'lgan maqollar mazmunida, aksariyat holda, insonlarning gender rollari va jamiyatdagi o'rni bo'rtma aks etib turadi. Masalan, *Qizning ko'ngli xashak, yigit ko'ngli ipak* maqoli mazmuniga diqqat qaratsak. Ushbu maqolda o'zbek jamiyatiga xos bo'lgan azaliy gender tasavvur aks etgan bo'lib, ayollarning qalbi bilan hisoblashmaslik, ularning qalbini, hissiyotlarini e'tibordan chetda qoldirish, shu bilan barobarida qarshi jins vakili hissiyotlariga keng o'rin ajratish, unga o'ta muhim omil sifatida qarash aks etib turibdiki, bu yillar davomida shakllangan urf-odatlar mahsuli sifatida maqolda qoliplashgan [3]. O'zbek maqollarida ifodalangan ayol leksemasi quyidagi obrazlarni ifodalashga xizmat qilgan:

1. "Bir ayolning makri qirq tuyaga yukdir" maqoli ayollarning aqliy va psixologik qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlardagi mahoratini va o'z maqsadlariga erishishda qo'llaydigan strategiyalarni ifodalaydi. Ayol obrazi bu o'rinda salbiy konnotatsiya kasb etib, makkorlik va hiylanayrangni anglatuvchi ma'noda gender stereotiplarini aks ettiradi. Shu bilan birga ayollarga xos omilkorlik, o'tkir aqliy qobiliyat, ayyorlik kabi jihatlar ham bo'y ko'rsatganki, bu ayolday nozik xilqatning mushkul vaziyatlarda kuch-qudrat orqali emas, aqliy tafakkur orqali kurashishini ham anglatadi. Birlilik, asosan, erkak nutqida faol qo'llanib, ayollarga nisbatan ishonchsizlik ma'nosini ifodalaydi.

2. "Uch ayol – to'rt g'iybat" maqolida ayol so'zi salbiy stereotipik xususiyatlar bilan bog'lanadi. Maqol ayollar o'rtasidagi munosabatlarni g'iybat va mish-mishlarga moyil deb tasvirlaydi. Ushbu maqolda o'zbek mintalitetiga xos bo'lgan ijtimoiy bosim sezilib turadi. Bilamizki, o'zbek jamiyatida ijtimoiylashuv juda kuchli, har bir o'zbek jamiyat va atrofdagi kishilar oldida o'zini javobgar deb biladi, ular bilan hisoblashishga o'zini mas'ul deb tushunadi. Chunki u yoshligidan "Odamlar nima deydi?", "Qo'ni-qo'shni oldida uyatga qolamiz" kabi jumlar ta'sirida ulg'aygan, shu sababli butun bir jamiyatda kishilarni muhokama

qilish kuchli. Tabiatan so'zamol va sergap bo'lgan ayollar orasida insonlarni muhokama qilish, ularning hayotiga qizish va o'zaro axborot almashish juda kuchli bo'lgani sabab yuqoridagi kabi maqollar shakllangan. Bu kabi qo'llanishlar ayol so'zining semantikasini cheklaydi va gender stereotiplarini voqelantiradi.

3. "Ayolning aqli uning go'zalligida, erkakning go'zalligi uning aqlida" maqolida ayol so'zi erkaklardan farqli o'laroq, asosan tashqi ko'rinish bilan bog'liq holda keltiriladi. Bu maqoldagi *ayol* so'zining qo'llanilishi jinslararo farqlarni keskin ajratib, ayollarning aql-idrokini erkaklarnikidan pastroq qo'yadi. Ayol so'zining bunday semantik chegaralanishi gender tengsizlikni yuzaga chiqargan holda ayollarning intellektual salohiyatini to'liq e'tirof etishga to'sqinlik qiladi.

4. "Ayolning og'zidan chiqadigan gap, ikki kun yashar". – Bu maqolda ayolning so'zlari va fikrlari ko'proq an'anaviy ijtimoiy normaga muvofiq ravishda qabul qilinishi ta'kidlanadi. Bilamizki, o'zbek oilalarida asosiy qarorni erkaklar qabul qiladi, istalgan muammoning oxirgi yechimi erkak so'zi bilan yakunlanadi. Shu jihatdan bu o'rinda ayollarning oiladagi o'rni va fikriniga munosabat aks etmoqda [4].

O'zbek maqollarida erkaklar ko'pincha boshqaruvchi, mehnatkash va yuqori ijtimoiy mavqega ega shaxs sifatida tasvirlanadi. Ayollar esa oilaviy va hissiy mas'uliyatga ega, asosan, oilaviy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi shaxslar sifatida ko'rsatiladi.

Ingliz tilidagi maqollar ham erkak va ayolga xos ijtimoiy rollarni aks ettiradi, ammo ularning gender stereotiplari o'zbek maqollariga nisbatan ba'zan yanada erkinroq va zamonaviyroq ko'rinishda bo'lishi mumkin. O'zbek tilida esa ayolning ijtimoiy maqomi asosan "*uy bekasi*", "*ona*", "*xotin*", "*qiz*", "*kelin*" timsollarida namoyon bo'ladi. Ammo "*rahbar ayol*", "*fan arbobi*" kabi maqomlarining mavjud emasligi, ayollarning qadr-qimmatini tushirmaydi, chunki o'zbek erkaklari ayollarni zaif jins sifatida asrab-avaylab, e'zozlab yurishni xohlaydilar. Ularga, avvalo, saranjom-sarishta uy bekasi, maslahatchi turmush o'rtog'i, mehribon ona kerak: "*Xotining yaxshi bo'lsa, bu dunyoning charog'i*" kabi maqollar ana shu qarashlar mahsuli deyish mumkin.

Ingliz tilidagi jins belgili maqollarni tanlashda *man* leksemasidagi "*erkak*" va "*odam*"

ma'nolarini farqlash qiyinlashdi. *Man* komponentli ko'plab maqollar, umuman, shaxsni tavsiflaydi: *Every man has a fool in his sleeve* (so'zma-so'z. Har bir odamning yengida axmog'i bor) – Har to'kisda bir ayb; *A man can do no more he can* (so'zma-so'z. Odam qo'ldan kelganidan ortiq narsa qila olmaydi.) – Boshdan yuqoriga sakrab bo'lmaydi; *All men are mortal* – O'lim muqarrardir; *A man can die but once*. – Bir boshga bir o'lim. Oxirgi ikki ingliz misolining muqobil variant sifatida o'zbek tilidagi “bandalik ekan” diniy xarakterli iborani ham olish mumkin. Iboralar “hamma o'ladi, u Xudoning bandasiga xos, joyi jannatda bo'lsin” kabi mazmuni ifodalaydi [6].

Ingliz maqollarida ayollar ko'pincha oilaning ichki hayotini saqlovchi, mehribon va saxovatli shaxslar sifatida tasvirlanadi [7]. Misol uchun:

1. **“Behind every successful man is a woman”**. – Ushbu maqolda ayolning erkak muvaffaqiyatida beqiyos o'rni va qo'llab-quvvatlovchi sifatidagi roli ta'kidlanadi. Bu o'rinda ayol nafaqat oilani qo'riqlovchi, oila asosi sifatida, balki oila boshlig'i sanalgan erkak muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko'rsatilmoqda. Bu maqol orqali ingliz madaniyatida, o'zbek jamiyatidan farqli o'laroq, ayollarga xos omilkorlik, aql-zakovatning tan olinishini ko'rish mumkin.

2. **“A woman's place is in the home”**. – Bu maqolda esa ayolning an'anaviy gender roli ko'rsatilgan, ya'ni ayolning asosiy o'rni oilada va u oilaning farovonligi uchun mas'uldir.

Ingliz maqollarida erkaklar ko'pincha ijtimoiy va iqtisodiy muvaffaqiyatlarga erishuvchi shaxslar sifatida tasvirlanadi, ayollar esa oilaviy hayot va muhitni saqlovchi, qo'llab-quvvatlovchi rolni bajaradi va bu jihati bilan o'zbek maqollaridagi ayol roliga o'xshashdir [8].

XULOSA (CONCLUSION). O'zbek va ingliz maqollarida gender belgilarining ifodalanishida ba'zi o'xshashliklar va farqlar mavjud. Har ikkala madaniyatda ham ayollar oilada

mehribon va asosan ichki ishlarni boshqaruvchi, oilani asrab-avaylovchi, oila farovonligiga mas'ul shaxslar sifatida tasvirlanadi. Biroq, ingliz maqollarida ba'zan ayolning yuksalishi yoki erkakni qo'llab-quvvatlashi haqida ham o'ziga xos g'oyalari ifodalanadi, bu esa ingliz jamiyatining zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarga moslashganligini ko'rsatadi. O'zbek maqollarida esa an'anaviy gender rollari va stereotiplari kuchliroq ifodalangan. Ayollarning ko'proq oilaviy mas'uliyatlariga va hissiy holatlariga e'tibor qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nasrullayeva N.Z. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarining shakllanishi: Filologiya fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'MU, 2018. – 71 b.;
2. Насруллаева Н.З. Национально-культурная специфика гендерных стереотипов в английской и узбекской фразеологических системах // Хорийй filologiya, № 4. – T., 2017. C.34-38.
3. Maqollar va ularning ma'nosi haqida umumiy qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. Raynor, T. Gender in Proverbial Wisdom: A Cross-Cultural Study. Oxford University Press, 2015.
5. Allport, G. W. The Nature of Prejudice. Addison-Wesley, 1954.
6. Mukarramov M. Ko'chimlarning o'zaro munosabati // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №5. – B. 50–56.
7. Muhamedova S. Valentlik nazariyasining Yevropa va o'zbek tilshunosligidagi rivoji. – Toshkent: Universitet, 2000. – 12 b.
8. Qurbonova M. Genderolingvistik tadqiq yangi paradigma sifatida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2014. – №2. – B. 43–47.